



QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMINING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARINI IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASH

Ro‘ziev Bobir Akramovich

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: ruzievb053@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1486-9749

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss6/768

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida safari turizmining rivojlanish ko‘rsatkichlari iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda 2008–2024 yillar uchun turizm xizmatlari hajmi, yovvoyi hayvonlarni ruxsatnoma asosida ovlashdan tushgan to‘lovlar, xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi, ovchi va baliqchilar soni, turizm sohasida bandlik kabi asosiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Normal taqsimot testi, korrelyatsion tahlil, chiziqli regressiya, ARIMA/ARMA vaqt qatori modellari qo‘llanilib, safari turizmining iqtisodiy ta‘sir mexanizmlari aniqlangan. Natijalarga ko‘ra safari turizmi mintaqa iqtisodiyotida yuqori o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lib, 2030 yilga kelib asosiy ko‘rsatkichlar 1,8–3 barobar oshishi prognoz qilinadi. Tadqiqot safari turizmini rivojlantirishda ichki resurslar potentsiali va xizmat ko‘rsatish klasterlarining muhimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: safari turizmi; iqtisodiy-statistik tahlil; regressiya modeli; ARIMA; prognozlash; turizm xizmatlari; Qashqadaryo viloyati.

Аннотация

В статье проведён экономико-статистический анализ показателей развития сафари-туризма в Кашкадарьинской области. В исследовании использованы данные за 2008–2024 годы по объёму туристических услуг, платежам за лицензированную охоту, потоку иностранных и внутренних туристов, численности охотников и рыболовов, а также занятости в сфере туризма. С применением тестов на нормальность, корреляционного анализа, линейной регрессии и моделей временных рядов ARIMA/ARMA выявлены основные факторы, влияющие на развитие сафари-туризма. Результаты показывают, что к 2030 году ключевые показатели отрасли увеличатся в 1,8–3 раза, что свидетельствует о значительном экономическом потенциале этого направления. Исследование подчёркивает важность внутренних ресурсов и развития кластеров туристических услуг для устойчивого роста сафари-туризма.

Ключевые слова: сафари-туризм; экономико-статистический анализ; регрессионная модель; ARIMA; прогнозирование; туристические услуги; Кашкадарьинская область.

Abstract

This article presents an economic–statistical assessment of safari tourism development indicators in the Kashkadarya region. The study utilizes 2008–2024 data on tourism service volume, licensed wildlife hunting payments, inbound and domestic tourist flows, the number of hunters and anglers, and tourism-sector employment. Normality testing, correlation analysis, linear regression, and ARIMA/ARMA time-series models were applied to identify the key economic mechanisms driving safari tourism. Results indicate that by 2030, major indicators of safari tourism are projected to

increase by 1.8–3 times, reflecting strong growth potential in the region. The study highlights the significance of domestic resources and service-cluster development in ensuring the sustainable expansion of safari tourism.

Keywords: safari tourism; economic–statistical analysis; regression model; ARIMA; forecasting; tourism services; Kashkadarya region.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar mintaqalarda yangi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan turizm yo‘nalishlarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shulardan biri – safari turizmi, ya‘ni yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitda kuzatish, foto-safari, ekstremal jiping, ekologik ta‘lim va ov turizmi kabi faoliyati bilan ajralib turuvchi yo‘nalishdir. Qashqadaryo viloyati tabiiy landshafti, resurs salohiyati va biologik xilma-xilligi bilan O‘zbekistonda safari turizmi uchun eng istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi.

Safari turizmi mintaqa iqtisodiyotiga ikki tomonlama ta‘sir ko‘rsatadi: xizmat ko‘rsatish, transport, ov turizmi, hunarmandchilik, ko‘ngilochar xizmatlar kabi sohalarda daromadni oshiradi; qo‘riqlanadigan hududlar, milliy bog‘lar, yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish tizimi orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga safari turizmining rivojlanish dinamikasini baholash, uni belgilovchi asosiy omillarni aniqlash va prognozlash jarayoni iqtisodiy-statistik yondashuvlar asosida amalga oshirilishi zarur. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Qashqadaryo viloyatida safari turizmining rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillarni ekonometrik usullar asosida baholash, regressiya va vaqt qatori modellari yordamida istiqboldagi ko‘rsatkichlarni prognozlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Safari turizmi bo‘yicha xalqaro ilmiy manbalar tahlili ushbu yo‘nalishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini bir-biri bilan chambarchas bog‘langan kompleks tizim ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, Buckley safari turizmini “tabiiy ekotizimlar barqaror boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega xizmatlar majmui” sifatida talqin qiladi va uning iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta‘siri muhimligini ta‘kidlaydi[1].

Lindsey va boshqalar tomonidan Afrikadagi ov turizmi bo‘yicha o‘tkazilgan keng ko‘lamli tadqiqot natijalarida safari turizmi qo‘riqlanadigan hududlar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda asosiy daromad manbalaridan biri ekanligi qayd etilgan[2].

Weaver esa ekoturizm va safari turizmining umumiy tamoyillarini tahlil qilib, turist oqimi, xizmat sifatini oshirish va mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini kuchaytirish barqaror rivojlanish uchun zarur omillar ekanini asoslaydi[3].

Xalqaro adabiyotlarda shuningdek safari turizmining klasterlar orqali rivojlanishi Porter, iqtisodiy zarar–foyda modellari, vaqt qatorlari asosidagi prognozlash usullaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar keng qo‘llanilgan[4].

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda safari turizmi yangicha shakllanayotgan yo‘nalish bo‘lgani sababli, mahalliy tadqiqotlar asosan resurs salohiyatini baholash, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va turizm infratuzilmasining ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan. Karimov mamlakatda ekoturizm va ov turizmi uchun mavjud resurslar, qo‘riqxonalar tizimi va iqtisodiy imkoniyatlarni baholab, safari turizmining investitsion jozibadorligi yuqoriligi haqida xulosa beradi[5].

Djurayev esa Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida safari turizmining rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilib, turistlar oqimini oshirishda infratuzilma modernizatsiyasi,

ruxsatnoma tizimini soddalashtirish va xususiy sektorni jalb qilish hal qiluvchi omillar ekanini asoslaydi[6].

Mavjud ilmiy manbalar safari turizmining barqaror rivojlanishida statistik tahlillar, regressiya modellari va ARIMA kabi zamonaviy prognozlash usullarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyatida safari turizmining rivojlanish omillarini chuqur ekonometrik tahlil qilish orqali adabiyotlardagi ilmiy bo'shliqni to'ldiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi safari turizmining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning vaqt bo'yicha dinamikasini baholashga qaratilgan kompleks iqtisodiy-statistik yondashuvlardan iborat bo'lib, bunda sifat (deskriptiv) va miqdoriy (ekonometrik) metodlar birgalikda qo'llanildi. Avvalo, turizm xizmatlari hajmi, ruxsatnoma asosidagi ov to'lovlari, xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi hamda ovchi va baliqchilar soni kabi ko'rsatkichlarning variatsiya xususiyatlari Jarque–Bera, Skewness va Kurtosis mezonlari orqali normal taqsimotga mosligi tekshirildi[7]. O'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik aloqadorlik juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari yordamida baholanib, bog'liq o'zgaruvchini shakllantiruvchi asosiy determinantlar tanlab olindi[8]. Keyingi bosqichda safari turizmining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha chiziqli regressiya modeli eng kichik kvadratlar usuli asosida baholandi, elastiklik koeffitsiyentlari hisoblandi va ularning iqtisodiy mazmuni talqin qilindi. Vaqt qatorlarining kelgusi dinamikasini aniqlash maqsadida ARIMA/ARMA hamda ARMAX modellari qurildi, bu esa Qashqadaryo viloyatida safari turizmi ko'rsatkichlarining 2030 yilgacha prognoz parametrlarini yuqori aniqlikda baholash imkonini berdi[9]. Metodologiyaning mazkur tizimli yondashuvi safari turizmi rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlarini chuqur ochib berish va ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Tahlil va natijalar

Qashqadaryo viloyatida safari turizmining rivojlanish dinamikasi 2008–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida chuqur iqtisodiy-statistik usullar yordamida baholandi. Avvalo, tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimlanganligi Jarque–Bera mezoni orqali tekshirildi va TBT, OS, OBS, TKI, KBX o'zgaruvchilari uchun p-qiymatning 0,05 dan yuqori ekanini ularni ekonometrik modellashtirishga yaroqli ekanini ko'rsatdi[7]. Juft korrelyatsiya matritsasi natijalari safari turizmi bilan bog'liq jarayonlarning kuchli o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi: xususan, TBT ko'rsatkichi TSB ($r = 0,864$), KBX ($r = 0,949$) va OS ($r = 0,842$) ko'rsatkichlari bilan juda yuqori korrelyatsiyaga ega. Bu holat safari turizmining rivoji, bir tomondan, ovchi-baliqchilar faolligi, ikkinchi tomondan esa, xizmat ko'rsatish sohasi hamda kichik biznes sektorining faollashuvi bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar ham safari turizmi iqtisodiy zanjirining tarkibida xizmat ko'rsatish sektori hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi[1][3]. Shu bois Qashqadaryo viloyatida safari turizmining o'sishi ko'plab tarmoqlarni bir vaqtning o'zida faollashtirayotgan ko'rinadi.

TBT omilining OS, OBS va TSB o'zgaruvchilariga bog'liqligini aniqlash uchun qurilgan chiziqli regressiya modeli yuqori monandlikka ($R^2 = 0,9576$) ega bo'lib, barcha regressiya koeffitsiyentlari statistik ahamiyatli chiqqan. Gujarati (2004) ta'kidlaganidek, bunday yuqori R^2 qiymati modelning iqtisodiy jarayonni yetarli darajada tushuntirish qobiliyatiga egaligini bildiradi. Elastiklik koeffitsiyentlari natijalariga ko'ra OS ko'rsatkichining 1% ortishi TBT hajmini 1,4% ga oshiradi; OBS ko'rsatkichining 1% ortishi esa TBT ni 1,3% ga oshiradi. Bu esa

safari turizmi rivojida ruxsatnoma asosidagi ov faoliyatining real iqtisodiy drayverga aylanganini anglatadi. Xalqaro adabiyotda ov turizmining iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha Lindsey va boshqalar o‘xshash natijalarga erishgan bo‘lib, ruxsatnoma asosidagi ov to‘lovlari qo‘riqxonalar va tabiiy bog‘larning asosiy moliyaviy manbalaridan biri ekanini ko‘rsatgan[2].

Tadqiqotning vaqt qatorlariga asoslangan modeli — ARIMA/ARMA — safari turizmining qisqa va o‘rta muddatli dinamikasini prognozlash imkonini berdi. TBT uchun ARMA(2,1) modeli yuqori aniqlik bilan ($R^2 = 0,898$) 2030 yilga borib to‘lovlar hajmi 2024 yilga nisbatan 2,9 barobar ortishini ko‘rsatdi. XSS uchun ARIMA(0,2,2) modeli xorijiy turistlar oqimining ichki trendga emas, balki tashqi omillarga (marketing, chegara siyosati, xalqaro imidj) bog‘liqligini ko‘rsatdi, bu esa Buckley ta‘kidlaganidek, safari turizmi global bozorda raqobatbardosh segment sifatida tashqi ta‘silarga sezgir ekanini tasdiqlaydi. Mahalliy turistlar oqimi esa ARMA(1,1) modeli bo‘yicha barqaror o‘shish traektoriyasiga ega bo‘lib, yakuniy multiplikator (0,62) ichki turizm salohiyatining yuqoriligini isbotlaydi. TXK uchun ARMAX(2,2) modeli TBT omilining turizm xizmatlari hajmiga sezilarli ta‘sirini ($\beta = 90,03$) ko‘rsatdi, bu safari turizmi mintaqa turizm klasterida yetakchi rol o‘ynashini bildiradi[4].

Prognozlash natijalariga ko‘ra:

- TBT 2030 yilga kelib 2,9 barobar,
- XSS 2,1 barobar,
- MSS 1,87 barobar,
- TXK 2,1 barobar,
- TSB 2,8 barobar ortishi kutilmoqda.

Bu natijalar safari turizmining Qashqadaryo viloyatida yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ega drayver tarmoqqa aylanayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tahlil safari turizmining kelgusi 5–7 yilda mintaqa iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etishini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Xulosa

O‘tkazilgan iqtisodiy-statistik tahlillar Qashqadaryo viloyatida safari turizmi mintaqa turizm tarmog‘ining eng istiqbolli va tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatdi. Normal taqsimot testi, korrelyatsion tahlil, regressiya va ARIMA/ARMA modellarining natijalari safari turizmi rivojlanishi avvalo ovchi-baliqchilar faoliyati, xizmat ko‘rsatish sektori, kichik biznes va bandlik kabi omillar bilan kuchli bog‘liq ekanini tasdiqladi. Prognozlash natijalariga ko‘ra, 2030 yilga borib safari turizmi bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar 1,8–3 barobar oshishi kutilmoqda, bu esa tarmoqning iqtisodiy samaradorligi va investitsion jozibadorligini yanada oshiradi. Tadqiqot safari turizmining Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda, yangi ish o‘rinlari yaratishda va turizm klasterlarining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buckley, R. (2018). Tourism and Natural Resource Management: Ecotourism, Safari Tourism and Wildlife Protection. *Journal of Sustainable Tourism*, 26(6), 871–889.
2. Lindsey, P. A., Roulet, P., & Romanach, S. (2007). Economic and conservation significance of the trophy hunting industry in sub-Saharan Africa. *Biological Conservation*, 134(4), 455–469.
3. Weaver, D. (2020). *Ecotourism Principles and Practices*. Routledge.

4. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review Press.
5. Karimov, A. (2021). Ekoturizm va ov turizmining iqtisodiy imkoniyatlari. O‘zbekiston Iqtisodiyoti jurnali, 4(3), 45–56.
6. Djurayev, B. (2022). Safari turizmining rivojlanish omillari: Qashqadaryo-Surxondaryo misolida. Turizm va Marketing Tadqiqotlari, 2(1), 33–42.
7. Jarque, C. M., & Bera, A. K. (1987). A test for normality of observations and regression residuals. International Statistical Review, 55(2), 163–172
8. Gujarati, D. N. (2004). Basic Econometrics (4th ed.). McGraw-Hill.
9. Box, G., & Jenkins, G. (1976). Time Series Analysis: Forecasting and Control. Holden-Day.
10. Cohen S., Higham J. Wildlife Tourism Development. Tourism Management, 2020.
11. Bramwell B., Lane B. Collaborative Governance in Tourism. Annals of Tourism Research, 2022.
12. Karimov, A. (2021). Ekoturizm va ov turizmining iqtisodiy imkoniyatlari. O‘zbekiston Iqtisodiyoti, 4(3), 45–56.
13. Djurayev, B. (2022). Safari turizmining rivojlanish omillari: Qashqadaryo-Surxondaryo misolida. Turizm va Marketing Tadqiqotlari, 2(1), 33–42.
14. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston turizm statistik ma’lumotlari. Toshkent: Turizm qo‘mitasi nashriyoti.